

**KORXONA MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY  
ASOSLARI**

**Zubaydullaeva Zulaykho Karimovna**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori*

**ARTICLE INFO**

**ARTICLE HISTORY:**

*Received: 18.04.2025*

*Revised: 19.04.2025*

*Accepted: 23.04.2025*

**ABSTRACT:**

*Ushbu maqolada korxona moliyaviy xavfsizligini ta'minlash yullari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.*

**KEYWORDS:**

*xavfsizlik, risk,  
tavakalchilik,  
barqarorlik, moliya,  
iqtisodiy xavfsizlik,  
moliyaviy xavfsizlik,  
indikativ ko'rsatkich.*

Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda keskin raqobat muhiti, innovatsion taraqqiyot, moliyaviy texnologiyalar qo'llanishi doirasining kengayib borishi natijasida korxonalar moliyaviy xavfsizligini oshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi, aloqa korxonalari, respublikada elektron hukumatni joriy etish, rivojlantirish va rivojlanish indeksidagi o'rnni belgilash, aloqa korxonalarining moliyaviy xavfsizligini oshirish, start-up loyihamalarini qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil qilish hamda boshqarish masalalariga doir izlanishlar natijalarini e'lon qilib kelmoqda. Masalan, Yevropaning rivojlangan mamlakatlarda dasturiy mahsulotlardan keladigan daromad mamlakat yalpi ichki mahsulotining 15-20 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga korxona moliyaviy xavfsizligini oshirish masalalari korporativ moliya, moliyaviy menejmentni samarali boshqarish uslubiyoti va amaliyoti nuqtai nazaridan kam tadqiq qilingan mavzular qatoriga kiradi. Aloqa korxonalarining moliyaviy xavfsizligini oshirish masalalari yashirin iqtisodiyotni oldini olish, korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro miqyosda, muntazam ravishda aloqa korxonalarida moliyaviy xavfsizlikni oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Ishlab chiqarish-iqtisodiy tizim faoliyati va taraqqiyotining muhim tavsiflaridan biri-uning moliyaviy xavfsizligi hisoblanadi. Iqtisodiy salohiyatni ushlab turish muammosining alohida ahamiyati va zarurligi xo‘jalik yuritish sharoitlari va iqtisodiy konyunkturaning keskin o‘zgarishi kuzatilgan holatlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi (Abryutina M.S., 2016).

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy xavfsizlik mazmunini tushunishning turlicha yondoshuvlari va variantlari uchraydi. Jumladan, I.A.Pavlova fikricha, korxona moliyaviy xavfsizligining mohiyati “Uning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo‘jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta’minalashga imkon beradi” (I.A. Pavlova, 2017).

I.N.Omelchenko va YE.V.Borisovalar fikricha, “ moliyaviy xavfsizlik doimiy tarzda bozor konyunkturasi o‘zgarib borishi sharoitida korxonaning o‘z moliyaviy stabilligini saqlab qolish qobiliyatidir” (Omelchenko I.I., 2017).

L.T.Gilyarovskaya va A.A.Vexorevalar ta’kidlashicha, “Korxona moliyaviy xavfsizligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to‘lovga layoqatlilik ta’milanadi, balki shu bilan birga foya va kapitalning o‘sishiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi” (Gilyarovskaya L.T, Vexoreva A.A., 2013).

E.V.Isayeva qarashicha, “Korxona moliyaviy xavfsizligi - bu moliyaviy holatning ilgarigidan ko‘ra yaxshilangan holatdagi o‘sib borishidir (Isayeva E.V., 2018)”.

O.R.Krivitskaya fikricha, “Moliyaviy xavfsizlik korxona kelgusi rivoji uchun ahamiyatlbo‘lgan iqtisodiy mustaqillikning garovi bo‘lmish yetarli darajadagi foya hajmining mavjudligidir (Krivitska O.R., 2015).

Xullas, yuqorida mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish orqali quyidagi xulosa qilish mumkin: mualliflar o‘rtasida “Moliyaviy xavfsizlik” mazmuniga oid yaxlit ta’rif berilgani yo‘q; korxona moliyaviy xavfsizligi nafaqat alohida olingan korxonalar, balki shu bilan bir vaqtda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi; xavfsizlikni baholash nafaqat moliyaviy, balki umumiqtisodiy ahamiyatdagi muammolarni hal etish uchun ham birdek ahamiyatlidir.

Moliyaviy xavfsizlik – korxona ixtiyorida bo‘sh pul mablag‘lari va moliyaviy oqimlarning balansliligining mavjudligi asosida korxonaning faoliyat yuritishi va uzlusiz ishlashini ta’minalash qobiliyatidir. Korxona uzlusiz ishlari tarkibiga nafaqat uning

mahsulot ishlab chiqarishi, ish bajarishi yoki xizmat ko'rsatishini, balki shu bilan birga olingan kreditlar bo'yicha majburiyatlarning ijrosini ham kiritish lozim. Moliyaviy xavfsizlik uzoq vaqt davomida korxonaning to'lovga layoqatligini xususiyatlaydi.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarining tahlili asosida korxona moliyaviy xavfsizligining to'rt xil turdag'i asosiy ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin (1-jadval).

1-jadval

### Korxona moliyaviy xavfsizligining asosiy ko'rinishlari tavsifi

T/ r	Korxona moliyaviy xavfsizligining asosiy ko'rinishlari	Moliyaviy xavfsizlik turi tavsifi	Zahiralarni moliyalashtirish manbalari
1.	Mutlaq moliyaviy xavfsizlik	Korxona mutloq tarzda tashqi kreditorlardan xolis va to'lov qobiliyatining yuqori darajasiga ega	Barcha ishlab chiqarish zahiralari o'z aylanma mablag'lari hisobidan qoplanadi
2.	Normal moliyaviy xavfsizlik	Korxona to'lov qobiliyati o'z va jalb etilgan mablag'lar hisobidan ta'minlanadi	Tovar operatsiyalari bo'yicha kreditorlik qarzlari, o'z aylanma mablag'larining, ishlab chiqarish zahiralarini qoplash uchun olingan bank ssudalarining summasi
3.	Nobarqaror moliyaviy xavfsizlik	Qoplashning qo'shimcha manbalari	Moliyaviy qiyinchilikni yumshatuvchi yoki ma'lum ma'noda normal asoslarga ega bo'lmagan vaziyatda o'z aylanma mablag'lari hamda uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlar
4.	Inqirozli moliyaviy holat	Korxonaning bankrotlik yoqasida turganligi	Pul mablag'lari, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar va debtorlik qarzlari hatto kreditorlik qarzlari va muddati o'tib ketgan ssudalarni qoplash uchun ham yetmasligi

Yuqorida bildirilgan fikrlarning umumlashma tahlili "Moliyaviy xavfsizlik" tushunchasi

mohiyatini tushunishga uch xil yondoshuv mavjudligini ko'rsatdi.

Birinchi yondashuv mazkur tushunchani tor ma'noda tushunishni izohlaydi va xo'jalik subekti moliyaviy holatining ko'rsatkichlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Ikkinci yondashuv vakillari esa, o'z navbatida, ushbu tushuncha mazmunining talqinida asosiy e'tiborlarini korxona ishchan faolligi va ishonchliligi orqali ifodalanuvchi raqobatbardoshlik va korxona hamda uning hamkorlari iqtisodiy manfaatlari samarali ijrosining kafolati bo'lmish moliyaviy xavfsizlik ko'rsatkichlari baholanishining zarurligiga qaratadilar.

Va nihoyat, uchinchi yondashuv vakillari korxona moliyaviy xavfsizligini moliyaviy resurslarning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatalishi bilan bog'laydilar (Yeletskix S.Y., 2018).

Bizning fikrimizcha, korxona moliyaviy xavfsizligi - bu xo'jalik subektining o'z faoliyatini kengaytirilgan asosda moliyalashtirish, tashqi nobarqaror muhit ta'siriga qarshi tura olishlik va noxush holatlarda ham o'zining to'lovga layoqatliligin saqlay olishga qaratilgan qobiliyatidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lsada, bu jarayonda ular davlat ko'magiga muhtojdir. Hozirgi sharoitda iqtisodiy fan oldidagi muhim vazifalardan biri – korxonalari taraqqiyotining moliyaviy muammolarini, jumladan korxonalar moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan yo'riqlarni ishlab chiqish hamda nazariy asoslashdir.

Korxonalar nafaqat iqtisodiy tadbirlar tizimini, balki faoliyatning turli jabhalariga oid muammolar bo'yicha, jumladan, korxonalar tashkiliy shakllarini tanlash va ular ko'lamini aniqlash, alohida tarmoqlarda korxonalar taraqqiyoti xususiyatlarini belgilash, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini iqtisodiy tahlil qilish va moliyaviy nazorat o'rnatish uslubi asosida korxonalar xo'jalik moliyaviy faoliyatini boshqarish kabi masalalar bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini talab etmoqda. Bu holat shu bilan belgilanadiki, korxonalar yangi iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqarishning ko'lami, xo'jalik mustaqilligidagi xususiyatlariga ko'ra nisbatan yangicha uslubiy yondashuvni talab etadi.

Ma'lumki, moliyaviy xavfsizlikning umumuslubiy tamoyillari barcha xo'jalik yurituvchi subektlar uchun yagonadir. Biroq, shu bilan birga mazkur tamoyillarning alohida tarmoqlar yoki xo'jalik yuritish zvenolaridagi amal qilishi ularning o'ziga xos, anik, shart-sharoitlarga moslashuvini talab etadi. Bu yerda shu narsa hisobga olinishi lozimki, moliyaviy xavfsizlik korxonalarning nafaqat mulk shakli va tashkiliy-huquqiy asoslariga

ko‘ra, balki xo‘jalik faoliyatining ko‘lamiga qarab ham alohida xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shunga muvofiq tarzda moliyaviy xavfsizlik mazmuni, obektining ko‘لامи, maqsadi va qo‘yilishi hamda moliyaviy holat, moliyaviy natijalarning baholanishi va talqin etilishi nisbatan farq qiladi.

Moliyaviy xavfsizlik moliyaviy menejmentning muhim tarkibiy qismidir. Korxona moliyaviy hisobotlarining barcha iste’molchilari o‘z manfaatlarini mukammallashtirish yuzasidan qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy xavfsizlik usullaridan foydalanadilar. Mulk egalari moliyaviy hisobotlarini korxona foydasini oshirish hamda uning barqaror holatini ta’minlash uchun o‘rnadanadilar. Kreditorlar va investorlar uchun esa bundan asosiy maqsad imkonи boricha risk daraja- sini pasaytirishdir. Biroq, shuni alohida ta’kidlash lozimki, qabul qilinayotgan qarorlarning sifati to‘laligicha ularni analitik asoslash sifatiga bog‘liqdir.

Bozor iqtisodiyoti jarayonida mulk shakllarining, ijtimoiy-iqtisodiy muhitning, xo‘jalik yuritish sharoitlarining o‘zgarishi kichik korxonalar moliyaviy holatini tahlil etish va baholashga yondashuvlarda tegishlicha o‘zgartirishlar qilinishini talab etmoqda. Moliyaviy holat har qanday xo‘jalik yurituvchi subekt uchun zarurdir, vaholanki, korxona “Yashovchanligi” uning daromadliligi hamda to‘lovga layoqatlilagini saqlash qobiliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Korxona moliyaviy holati o‘z ko‘لامи jihatidan o‘ta yirik va murakkab masaladir. Shu boisdan moliyaviy holat tahlilida anik, maqsadning qo‘yilishi mazkur masalaning aniqlashtirilishini va amaliy jihatdan hal qilinishi imkoniyatini belgilaydi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi fan-texnika yutuqlari natijalaridan keng foydalanish, ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish, barpo etilgan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan jadal foydalanish, boshqaruв tizimini, xo‘jalik mexanizmini takomillashtirish negizida iqtisodiyotni rivojlantirish hamda shu asosda xalq farovonligini yanada yuksaltirishni hozirgi kunning eng dolzarb vazifalari qilib qo‘ymoqda.

Bu ulkan vazifalarni bajarish uchun boshqa qator tadbirlar bilan bir qatorda korxonalarning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini chuqur va muntazam tarzda tahlil qilish darkor.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulkchilik shaklidagi korxonalar moliyaviy ahvolini o‘rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o‘z vaqtida pul tushumlarining kelib tushishi, to‘lov intizomiga rioya qilish, o‘z va qarz mablag‘larining to‘g‘ri nisbatda bo‘lishini ta’minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bo‘g‘inlarida iqtisod rejimi va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalarning moliyaviy holati ko‘p jihatdan baho, kredit, foya va uning taqsimlanish

mexanizmiga bog‘liqdir.

Moliyaviy holatga bevosita ta’sir etuvchi ana shu va boshqa omillarning o‘zgarishi ta’sirini o‘rganish hamda ularning salbiy ta’sirini kamaytirish yuzasidan tadbirlarni belgilash korxonalar moliyaviy holatini yaxshilashning muhim asosidir. Shu bois bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda.

Ma’lumki, korxonalar moliyaviy holatini o‘rganish muhim, o‘ta mas’uliyatli va murakkab jarayon bo‘lib hisoblanadi.

Korxonalar moliyaviy holati ularning ishlab chiqarish faoliyatiga, ya’ni mahsulot sifati, assortimenti, tannarxi, ayniqsa, sotish va foyda rejasining bajarilishiga bevosita bog‘liq.

Mahsulot (ish, xizmat) sotish va foyda rejasining muvaffaqiyatli bajarilishi korxonalar pul mablag‘larining ko‘payishiga, bajarilmasligi esa ularning kamayishiga olib keladi. Bu esa korxonaning byudjet va bank oldida bo‘lgan to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida amalga oshirishda ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Uz navbatida korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatni ular moliyaviy holatining xavfsizligiga bog‘liq.

Agar mahsulot (ish, xizmat) sotish va foyda rejasini bajarilmasa, u holda moliyaviy tanglik yuzaga keladi. Bunday tanglik yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri sotib oluvchilarning to‘lov qobiliyati yo‘qligidan va muddati o‘tib ketayotgan debitor qarzlar mavjudligidan, deb hisoblash mumkin.

Korxona faoliyatiga baho berishda “Moliyaviy natija”, “Moliyaviy holat”, “Moliyaviy xavfsizlik” kabi tushunchalarni farqlash lozim. Investorlar yoki moliyaviy hisobot natijalari bilan qiziquvchi boshqa har qanday subekt tomonidan korxona faoliyatiga baho berishda korxonaga qo‘yiladigan asosiy talab ketma-ketligi ham shu tartibda shakllanadi, ya’ni dastlab moliyaviy natija (foyda yoki zarar) aniqlanadi, uning omillari va sabablari yoritiladi, so‘ngra moliyaviy holat tahlili amalga oshiriladi va nihoyat, qo‘sishma urinish va kuzatuv natijalarini umumlashtirish orqali moliyaviy xavfsizlik imkoniyatlari o‘rganiladi.

Iqtisodiy tahlil jarayoni mazkur ketma-ketlikda oddiylikdan murakkablik tomon boradi, tahlil obekti va davriyiligi ham kengayib boradi.

Mazkur fikrlarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash lozimki, korxona moliyaviy holatini tahlil qilish masalasi iqtisodiy holatning korxona holatiga bir muncha umumiyoq baho berish imkonini beruvchi korxona faoliyatining moliyaviy natijalari holatidan farqlanadi.

Moliyaviy xavfsizlik tizimida korxona faoliyati moliyaviy natijalarining darajalari,

dinamikasi va tarkibining holati alohida o‘rin egallaydi. Korxona faoliyatini xususiyatlovchi ko‘rsatkichlarning ko‘pligi ularni tizimli tarzda ko‘rib chiqishning ma’lum uslubiy qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Mazkur ko‘rsatkichlarning turli iste’molchilar tomonidan turlicha maqsadlarda foydalanilishi ham tahlil chuqurligini qiyinlashtiradi. Masalan, korxona rahbarlarini olingan foydaning umumiylajmi hajmi va tarkibi, uning miqdoriga ta’sir etuvchi omillar qiziqtiradi.

Soliq inspeksiyasini esa korxona foydasining har bir manbalari bo‘yicha to‘liq va aniq ma’lumotni olish qiziqtiradi. Kreditorlar va sarmoyachilar uchun esa foya tahlili risklarni pasaytirish, ichki imkoniyatlarni qidirib topish, zarur strategik qarorlar qabul qilish uchun muhimdir.

Korxona faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili odatda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) tahlil qilinayotgan joriy davrda har bir ko‘rsatkich o‘zgarishlarini aniqlash;
- 2) tegishli ko‘rsatkichlar tarkibi va ularning o‘zgarishini o‘rganish;
- 3) moliyaviy natijalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar o‘zgarishi dinamikasini tahlil etish.

Moliyaviy holatni tahlil qilish jarayonida aylanma va oborotdan tashqari mablag‘larni o‘rganishga katta e’tibor beriladi. Bunda, ayniqsa, aylanma mablag‘larning tashkil topish manbalari alohida ko‘rib chiqiladi.

Mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan aylanma mablag‘lar asosan bank krediti hisobiga yoki har xil kreditor qarzlar hisobiga tashkil topadi.

Bordiyu, kichik biznes korxonasi aksionerlik mulki zaminida amal qilsa, aylanma mablag‘lar asosan aksionerlar mablag‘i hisobiga, paychilik jamiyati bo‘lsa, qo‘yilgan paylar hisobiga tashkil bo‘lishi mumkin.

Odatda korxonaning o‘z aylanma mablag‘lari hamma vaqt ham uning o‘z ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish uchun yetarli bo‘lavermaydi, lekin zarur bo‘lgan aylanma mablag‘larning asosiy qismini tashkil qilish darkor. Hozirgi vaqtida, ayniqsa, yangi tashkil topgan kichik korxonalarda o‘z aylanma mablag‘larining yetishmasligi va ko‘pchilik hollarda bank kreditlaridan va boshqa manbalardan foydalanilishi, ular moliyaviy holatini muntazam o‘rganib borish hamda chuqur va atroflicha tahlil qilib borishni taqozo qilmoqda.

Moliyaviy holat tahlil qilinar ekan asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi:

-korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o‘rganib, uning holatiga aniq va xolisona baho berish;

-mablag‘lar manbalari va joylanishini tekshirish, ularni to‘g‘ri yo‘nalishda ishlatalganligini aniqlash;

-to‘lov majburiyatlarining o‘z muddatida bajarilganligi, debitor va kreditor qarzlar tarkibini o‘rganish;

-korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘lari bilan qarz mablag‘lari o‘rtasida nisbatni va aylanma mablag‘larning manba bilan ta‘minlanganligini tekshirish, moliyaviy intizomga qanchalik amal qilinishini aniqlash va to‘lov qobiliyatiga baho berish;

-korxona mulkining qadrliligi va tez pulga aylana olish darajasini o‘rganish;

-aylanma mablag‘lardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo‘yicha takliflar berish va h.k.

Tahlilning asosiy maqsadi – moliyaviy faoliyatdagи yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag‘lardan yanada to‘g‘ri foydalangan holda to‘lovga layoqatlilikni mustahkamlashga qaratiladi.

Demak, bu jarayon mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, harajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir- biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Moliyaviy xavfsizlikni bajarishda zarur bo‘ladigan ma’lumot manbalariga korxona balansi, unga qilingan ilovalar va moliyaviy hisobotning boshqa shakllari ma’lumotlari va shuningdek, buxgalteriyaning sintetik va analitik schyotlari ma’lumotlari ham kiradi, chunki keyingi yillarda tuzilayotgan moliyaviy hisobotlar umumiylajmining keskin qisqarishi tahlil imkoniyatlarini birmuncha cheklashga olib keldi.

Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag‘lar, zahira jamg‘armasi, foyda va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha ma’lumotlardan ko‘proq foydalilanadi. Bular xo‘jalik faoliyatining to‘g‘ri boshqarilishi, uning moliyaviy xavfsiz bo‘lishi va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hozir korxonalar moliyaviy faoliyati sohasida muhim vazifalar ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bu vazifalarni ijobjiy hal etmay turib, sama- rali bozor iqtisodiyoti mexanizmini vujudga keltirib bo‘lmaydi. Hozir moliya-kredit resurslari, pul mablag‘lari aylanishining moddiy boyliklar harakatidan ajralib qolganligi, debitor-kreditor qarzlarining ko‘payib ketganligi – bu sohadagi eng katta kamchilikdir.

Hozirgi milliy valyuta iqtisodiyot ustidan moliyaviy nazoratning faol vositasi bo‘lishdek o‘z vazifasini, rolini yanada to‘la-to‘kis bajara olishini ta‘minlash, jamiyat moliya tizimini hayot qo‘yayotgan yangicha talablarni qondirishga imkon beruvchi mexanizm sifatida takomillashtirib borish davlatning makroiqtisodiy siyosatining markaziy muammolaridandir. Ushbu masalalarni ijobjiy hal qilish, albatta, korxonalar moliyaviy holatini yaxshilashning dolzarb masalalarini kun tartibiga qo‘yadi.

Korxonada noxush moliyaviy holatning dastlabki belgilariga quyidagilar kiradi: sotish hajmi o'zgarmagan holda mehnatga haq to'lash harajatlarining o'sishi; kreditor (hakdor)lar soniga nisbatan qarzdorlar sonining tezroq o'sishi; sotish hajmi o'zgarmagani holda moddiy zapaslar darajasining o'sishi; korxona taraqqiyoti harajatlari hajmining o'sishi; sotish hajmining pasayishi; foiz stavkalari o'rtacha bozor darajasining o'sishi; maxsus qarzlarni qoplash uchun rezervlarning ortishi; o'z faoliyati haqida noaniq tahminlar tuzish; qarzdorlar uchun to'lov muddatining kechiktirilishi; ishlab chiqarish sikli muddatining ortishi; mahsulot sotish hajmi o'zgarmagani holda sarmoyachilar uchunto'lovlarning oshirilishi va h.k.

Korxona faoliyatiga oid ayrim boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi moliyaviy holatni qisqa muddatga yaxshilash imkonini beradi. Bunday tadbirlar tizimida qator dolzarb choralarini ajratib ko'rsatish mumkin: korxona qarzlarining to'lanishida to'lov muddatlarining kechiktirilishiga erishish; ish haqi berilishida qat'iy tartib saqlash; ta'sischilar uchun dividendlarni qayta investitsiya qilish; soliq imtiyozlaridan foydalanish; imtiyozli qarzlarni jalb etish; ishlab chiqarish zapaslaridan moddiy boyliklar sotilishini ta'minlash; ortiqcha asosiy vositalarni sotish; boshqaruv-ma'muriy xodimlarini qisqartirish.

Shunday qilib, ayrim moliyaviy ko'rsatkichning boshqa ko'rsatkichlar o'zgarishi xususiyatiga mos holda yaxshilanishi yoki yomonlashuvi korxona moliyaviy holatiga berilgan bahoni o'zgartirishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlar korxona moliyaviy holatini sifatli baholashning naqadar murakkabligini anglash imkoniyatini beradi, shuning uchun rivojlangan bozor tizimi sharoitida korxonalar alohida investorlar, maxsus tashkilotlar qarorlaridan ko'ra ko'proq o'zlarining xususiy kuzatishlari va tahlili natijalariga asoslanmokdalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomiceskix resheniy. /ucheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /ucheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Myers S.C. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: "Iqtisod- moliya", 2013. – 128 b.

5. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.

6. Polyak G. Territorialniye finansi: Uchebnoye posobiye/ G.B.Polyak; Vserossiyskiy zaochniy finansovo-ekonomich. in-t. -M: Vuzovskiy uchebnik - VZFEI, 2003. -479 c.

7. Djoldasova S. Yangi atamalar izohi. 08.10.2018 yil.  
<https://postda.uz/xabarlar/1305/> 08.10.2018.

8. Djumanov S.A. Kichik sanoat zonalarida moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish. //“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 y.